

HOZIRGI ADABIY JARAYONDA TANQIDCHILIKNING O'RN

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti, O'zbek tili yo'nalishi

3-kurs talabasi Shokirova Ruhsorabonu

Kalit so'zlar: adabiy tanqid, zamonaviy adabiy jarayon, tahlil, estetik mezon, mustaqillik davri adabiyoti, adabiy baho, tanqid metodlari, yosh ijodkorlar, internet-adabiyot, ilmiy qarash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayonda adabiy tanqidchilikning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy adabiyotning yangilanish jarayoni, tanqidning asosiy vazifalari, mustaqillik davrida tanqidchilikning rivoji, uning hozirgi muammolari va istiqboli ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada tanqidchilikning bugungi ahvoli, adabiy jarayonda yosh munaqqidlarning roli, adabiy-estetik me'yorlar, xolislik va ob'ektivlik masalalari hamda adabiy tanqidning kelajak istiqbollari muhokama qilinadi.

Keywords: literary criticism, contemporary literary process, analysis, aesthetic criteria, post-independence literature, literary evaluation, critical methods, young writers, digital literature, scientific approach.

Annotation: This article examines the role and importance of literary criticism in the modern literary process. It analyzes the renewal of contemporary literature, the main functions of criticism, the development of critical thought in the post-independence period, and the current challenges and future prospects. The paper highlights the situation of literary criticism today, the role of young critics, aesthetic norms, objectivity, and the outlook for literary criticism in the future.

Ключевые слова: литературная критика, современный литературный процесс, анализ, эстетические критерии, литература периода независимости, литературная оценка, методы критики, молодые писатели, интернет-литература, научный подход.

Аннотация: В статье раскрываются роль и значение литературной критики в современном литературном процессе. Проанализированы обновление современной литературы, основные функции критики, развитие критической мысли в период независимости, а также её современное состояние и перспективы. Отмечаются роль молодых критиков, эстетические нормы, объективность и взгляды на будущее литературной критики.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida adabiyot nafaqat milliy tafakkur, balki jahon madaniy merosi bilan hamohang holda rivojlanmoqda. Adabiy jarayon tez sur'atda yangilanib, janr va uslublarda rang-baranglik yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitda ijodiy jarayonni tartibga solish, badiiy mezonlarni aniqlash va adabiyotga ilmiy yondashuvni shakllantirishda adabiy tanqidning o'rni beqiyosdir. Tanqid adabiyotga yo'naltiruvchi kuch, o'quvchi va ijodkor o'rtasidagi bog'lovchi ko'prik, estetik qadriyatlar mezoni vazifasini bajaradi.

1. Hozirgi adabiy jarayonning o'ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy adabiy makon quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

mavzu va g'oyalar doirasining kengayishi (milliy tarix, diniy-ma'naviy masalalar, shaxs ruhiyati, texnologiyalashgan jamiyat muammolari); janrlar tizimida tajribalar (esse, memuar, psixologik proza, postmodern matnlar); yosh ijodkorlarning faolligi va internet-adabiyotning paydo bo'lishi; adabiyotning ijtimoiy hayotdagi ta'sirchanlik darajasining o'sishi. Shu jarayonda tanqidchilikning vazifasi adabiy muhitni tartibga solish, yo'naltirish va baholash bilan yanada ortmoqda.

2. Zamonaviy adabiy tanqidning asosiy vazifalari

a) Badiiy asarni baholash va saralash

Tanqid zamonaviy ijodning yutuq va kamchiliklarini aniqlab, adabiy jarayonning sifat darajasini belgilaydi.

b) Adabiy jarayonni yo'naltirish

Tanqidchilar o'z maqola va tahlillari bilan adabiy muhitga ta'sir ko'rsatadi: qaysi mavzular dolzarb, qaysi ijodkorlar yangi oqim olib kirayotganini belgilab beradi.

c) O'quvchi didini shakllantirish

Axborot ko'pligi o'quvchi tanlovini qiyinlashtiradi. Tanqid o'quvchiga badiiy asarni to'g'ri anglash, baholash va saralashda yordam beradi.

d) Yangi iste'dodlarni kashf etish

Adabiy tanqid yosh ijodkorlarning kitoblarini sharhlab, ularni targ'ib qiladi, adabiy jarayonga olib kiradi.

e) Zamonaviy metodologiyalarni joriy etish

Bugungi tanqid strukturalizm, intertekstual tahlil, psixoanaliz, komparativistika, postkolonial yondashuv kabi ilmiy metodlarni qo'llamoqda.

3. Tanqidning bugungi ahvoli va istiqboli

“O‘ZAS” keyingi vaqtda adabiy tanqidchiligimizni yuksaltirish orzusida kuyunchaklik bilan yozilgan maqolalarni chop etib, e'tiborimizni tortdi. Ana shu chiqishlar ta'sirida xayolimga “Tanqid kimga yoqadi?” degan savol ortidan ayrim fikrlar keldi. Tarixga razm solinsa, munaqqidlar har zamonda kamchil bo'lgan ko'rinadi. A. Pushkin 1829 yilda: “Bizda go'zal adabiyot bor, ammo hozircha tanqid yo'q”, deb yozgan. Shu avlodning talantli tanqidchisi V. G. Belinskiy maydonga chiqdi. Tanqidchining faolligi, tahlili va bahosi muhim, ammo ijod olamida iste'dodli adib shaxsiyatining bunyod bo'lishi undan ham muhimdir. Bahodir Karimning ta'kidlashicha, adabiy tanqidiy maqolalar — haqiqat yo'lidagi izlanish, iztirob, mehnat, mashaqqat va ilhom mahsulidir. Qalovini topib haqiqatni aytmoq kerak. Tez pishmagan maqola esa qurigan daraxtning shoxiga o'xshab mo'rt keladi. Tanqidchiga xusumat va tarafkashlik yarashmaydi. Tanqid oppoq ko'ylakdagi mitti qora dog'ni doston qilmasligi, haqorat yoki mazaxga berilmasligi kerak. Adabiy jarayonda xolis va adolatli tanqid muhim. Bugungi adabiy jarayonda ikki muhim omil sababli yangi asarlar e'tiborsiz qolishi mumkin: birinchidan, asarni tushunish va tushuntirishga munaqqid idroki yetmaydi; ikkinchidan, “asar” tanqidga arzimaydi. Haqiqiy munaqqidlar uchun yozilmagan mezonlar mavjud. Yoshlarning bu sohada ishtiroki ham muhim. Ular ilmiy adabiyotshunoslik va badiiy tahlilni o'rganib, tanqidchilik

ishlariga qat'iy kirishishi lozim. Original fikr va chuqur tahlil — har qanday olimning bebaho xazinasi hisoblanadi.

4. Mustaqillik davri va adabiy tanqidchilarning rivoji

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, adabiy tanqid yangi bosqichga ko'tarildi: mafkuraviy cheklovlar yo'qoldi; milliy o'zlik va tarixiy xotira erkin tahlil qilina boshlandi; Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov va boshqa tanqidchilar an'anasini davom ettirdi; internet-adabiyot va blog-tanqid rivojlandi. Bugungi tanqid ijtimoiy-gumanitar tafakkurning muhim qismiga aylandi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarida erkin rivojlanish boshlandi. Bu hol ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotida ham o'z ifodasini topdi. Sho'ro davri iskanjasidan va siyosatlashgan mafkura tazyiqidan qutulgan badiiy tafakkur erkin ijod yo'liga o'tdi. Adabiy tanqid badiiy asarlarga milliy g'oya va umumbashariy mezonlar asosida baho bera boshladi. Ayni vaqtda, ana shunday yo'nalishlarda yangi asarlar yaratilishiga ta'sir ko'rsatishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Istiqlol davriga kelib, baholash mezonlarida jiddiy o'zgarishlar va yangilanishlar ro'y bera boshladi. Mumtoz adabiyotimiz muammolari va siymolari ijodini o'rganishda, jadid adabiyoti namunalarini qayta baholash hamda qatag'on etilgan adiblarga munosabatda tamomiiya yangi tamoyillar yuzaga keldi. Ularga milliy istiqlool g'oyalari va umumbashariy mezonlar asos qilib olindi. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning qutlug' 550 yilligini nishonlash Mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotidagi Istiqlol g'oyalari asosida amalga oshirilgan dastlabki buyuk tadbirlardan biri bo'ldi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Elbek, Botu, Usmon Nosir hayoti va ijodini asl, tarixiy jihatdan haqqoniy ko'rinishda tadqiq etish adabiyotshunoslik va tanqidning dolzarb masalalariga aylandi. H.H.Niyoziy, G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor kabi san'atkorlar asarlarini qayta va xolis baholashga o'tildi. Mustaqillik yillarida tarixiy-biografik tadqiqotlar yaratilishga e'tibor kuchaydi. M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, E.Karimov, U.Normatov, B.Qosimov, A.Aliyev, Sh.Turdiyev, S.Ahmedov, A.Jalolov, I.Haqqulov singari adabiyotshunoslar XX asr yozuvchilari haqida qator

sermazmun tadqiqotlar yaratdilar. Ularning safiga B.Karimov, N.Jabborov, D.Quronov, U.Hamdani, S.Meliyev, Sh.Rizayev kabi keyingi avlod vakillari o'zlarining yangi-yangi salmoqli izlanishlari bilan kechib qo'shildilar. B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov qalamiga mansub «Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» hamda N.Karimovning «XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari» nomli kitoblari bu davrning katta yutuqlari sifatida e'tirof etildi. Bu yillarda adib, adabiyot zamondoshlar xotirasida, zamondoshlar nigohida rukni ostida qator kitoblar turkumi bosilib chiqdi. Qator kitoblarda G'afur G'ulom, S.Dolimov, N.Mallayev, Sh.Shomammedov singari ustozlarning o'lmas siymolari yoritildi. Filologiya fanlari doktori, professor K. Quramboyevning «G'afur G'ulom va adabiy aloqalar», «Adabiy ta'sirdan ijodiy o'ziga xoslikka», «Maxtumlul she'riyati O'zbekistonda», «Adabiy jarayon, ijod mas'uliyati, adabiy aloqalar», «Maxtumlul — ilhom chashmasi» kabi kitoblarida adabiy ta'sir va aloqalar, ijod mas'uliyati, R. Ibragimovning «O'zbek milliy fantastikasi», «Fantastika va hayot» kabi tadqiqotlarida fantastika va ijod muammolari tadqiq etildi. Adabiy tanqidda intellektual mushohada ortti. Balandparvozlik, madhiyabozlik yo'qolib bormoqda. Fikrni dalillash, ishonitirish san'atiga, kitobxonda go'zallik tuyg'usini tarbiyalash masalalarida jiddiy siljishlar ro'y bera boshladi. Tanqidda A.Rasulov, B.Sarimsoqov, B.Karimov, H.Boltaboyev, U.Hamdani, U. Jo'raqulov va boshqalarning asarlari misolida jahon adabiyotshunosligi tajribalari, mezonlari, uslubiy yo'nalishlari kuchaydi. Ayni vaqtda P.Mirzahmedova, M.Sharafiddinova, A.Qosimov, M.Xolbekov tadqiqotlari misolida o'zbek adabiyotini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish tamoyillari yuzaga keldi. Sharqda, o'zimizda O'rta asrlardayoq tafsirlar misolida namoyon bo'lib, XIX asrda Yevropada tushuntirish, talqin san'atining yangi ko'rinishi — «germenevtika» deb atalgan tadqiq yo'nalishi XX asr oxiri XXI asr avvalida adabiy yodgorliklarni, umuman, badiiy asarning tub ma'nosini talqin etishning yangi metodi — usuli sifatida namoyon bo'la boshladi. Germenevtikaning ayrim yo'nalishlari Forobiy sharhlaridan tortib, XIX asrgacha O'zbekistonda davom etib kelgan bedilxonlik va mashrabxonliklarda, xususan, «Mabdoi nur» hamda Maleho Samarqandiyning

«Muzakkirul ashob» va Is'hoq Bog'istoniyning «Tazkirayi Qalandaron» kabi asarlarida ma'lum ma'noda mavjud bo'lgan an'analar yangi bosqichda Ovroqpa mezonlari asosida ilmiy tus oldi. Bu davrga kelib, shuningdek, o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligiga M. Baxtin ilmiy-nazariy qarashlarining sezilari ta'sirini kuzatish mumkin. Mustaqillik tufayli, ayniqsa, hur va erkin fikrlash imkoniyati yaratildi. Umuman, keng kitobxonlar ommasi, xususan, barkamol avlodni fikr qulligidan ozod etishga harakat, mustaqil fikrlay oladigan kishilarni tarbiyalash adabiy tanqidning ham yetakchi masalasiga aylandi.

Xulosa

Adabiy tanqid tabiati, avvalambor, badiiy asar va hayotga suyanadi. G'oya, ijtimoiyot, vazifalar ham ana shulaming zamiridan kelib chiqadi va ularga bog'liq holda taraqqiy etadi. Biroq bu degani adabiy tanqid doimo hayot va adabiyotning ortidan ergashib yuradi, degani emas. U hayot va adabiyotni o'rganish, tahlil etish barobarida, o'z izlanish natijasidagi fikr, naliya, xulosa, taklillar bilan hayot va adabiyotdan birmuneha oldinda yurishi mumkingina emas, lozimdir. Bu adabiy tanqidning mohiyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Yuqoridagi kuzatishlarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkin: bugungi kun tanqidehiligi modern adabiyotga munosabatda yangicha tahlil va tamoyillarini shakllantirib bormoqda. E'tiborli jihati shundaki, mazkur jarayon silliq kechayotgan yo'q: mutlaqo bir-biriga qarama-qarshi fikrlar, bahs-munozaralar, izlanishlar natijasi hozirgi tanqidchilikning metodologik asoslari takomillashib borayotganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Zero, modernizm adabiyoti — murakkab san'at. U oddiy kitobxonga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Chunonchi, «modernizm» atamasining mazmunidan tortib uning ildizlari, tadriji, bu san'atning realistik adabiyotdan farqli jihatlari, fatsafiy asoslari yuksak namunaiari va boshqa ko'plab xususiyatlarini bilmay turib, modern asardan bahra olib bo'lmaydi. Shu bois ham adabiy tanqid adabiy jarayondagi yangilanishlarni qilar ekan, yangicha yo'nalishda yaratilayotgan badiiy adabiyot namunalari adabiy hayotga o'zining yangicha konsepsiya va estetik prinsiplarini olib kirayotganligini asoslashga harakat qilmoqda. Mazkur jarayonni kuzatganda uning jahon va rus

adabiyotshunosligidagi izlanish va yo‘nalishlar bilan mushtarak jihatlar borligini kuzatish mumkin. Bu hoi g‘oyat tabiiy ekanini ta’kidlash zarur. Mustaqillik yillarida badiiy asami yangicha tamoyillar asosida baholash, talqin va tahlil etish tamoyili kuchaydi. H. Boltaboyevning «Nasr va uslub» (1992), Y. Solijonovning «Nutq va uslub» (2002), Sh. Subhonning «She’riyat iqlimi» (2005), «Haqiqatning sinchkov ko‘zlari» (2009), U. Hamdamning «Yangilanish ehtiyoji» (2006) tadqiqotlarda buni yorqin ko‘rish mumkin. Zero, o‘zbek adabiy tanqidi sho‘ro davri mafkurasi tazyiqlaridan qutulib endi-endi jahonga yuz tutmoqda. Hozirgi adabiy jarayonda tanqidchilik adabiyotning yo‘nalishini belgilovchi, ijodkor faoliyatini baholovchi, o‘quvchi didini shakllantiruvchi, estetik mezonlarni mustahkamlovchi asosiy kuch hisoblanadi. Tanqidchilikning bugungi ahvoli va istiqboli adabiy jarayondagi xolislik, yosh munaqqidlarning rivoji, adabiy-estetik me‘yorlarning mustahkamlanishi bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarali Normatov. Adabiy tanqid nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan, 2005.
2. Karimov B. Mustaqillik davri o‘zbek adabiy tanqidi. Toshkent: Sharq, 2010.
3. Sharafiddinov O. Tanqid va badiiy asar. Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. “O‘zbek adabiyoti” jurnali, 2024 yi, 17-soni.
5. Naim Karimov. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018
6. Karim B. KARIM, Bahodir. “Hozirgi adabiy jarayonda tanqidchilikning ahvoli va istiqboli.” Filologiya jurnali", 2022.